

# TOSHKENT HAQIQATI

Viloyat  
ijtimoiy-siyosiy  
gazetasi

1928-yil 11-dekabrda  
asos solingan

2025-yil 8-fevral / SHANBA / № 6 (13767)

HAQSEVAR ONA YURT, MANGU BO`L OBOD!

@haqiqatonline\_24

Haqiqat online

haqiqatonline

▼ Alisher Navoiy  
tavalludining 584 yilligi

Navoiydan saboq  
olgan parkentliklar

Navoiy bobomiz go'zal  
g'azallar, dostonlar, devon-  
lar muallifi bo'lishi bilan  
birga, ayni paytda zabar-  
dast adabiyotshunos,  
tilshunos, faylasuf,  
tarixchi o'lakshunos,  
etnograf olim bo'lgani  
ni yaxshi ma'lum.  
Xususan, ul zoti sha-  
rif yaratgan tazkira-  
lar o'zbek xalqi ma'-  
naviyati, adabiyoti, adabi-  
yotshunosligi tarixini o'r-  
ganishda hamon qimmatli  
manbadir.

1490-91 yillarda yozilib, qay-  
ta-qayta ishlangan, Xuroson va  
unga qo'shni mamlakatlarda ya-  
shab, ijod qilgan 459 nafar shoir,  
yozuvchi, olimlarning hayoti va  
ijodiga oid mal'motlar jamlangan  
"Majolis un-nafois" ("Nafis  
majolislar") asari Alisher Navoiy  
ilmiy merosida muhim o'rinni tutadi.  
Asarda har bir ijodkorning qisqa  
tarjimali holi, nasabi, badiyi mahorati,  
fe'l-atvori sharhanadi, ijod-  
korga berilgan tafsifning ijodidan  
fikran teran, shaklanadi badiyi go'zal  
baytar – matla keltirish bilan  
asoslanadi.

**Mavlon Orif Farkatiy.** Asar-  
ning Samarcand mulki shoirlari  
tavsiiflangan 6-majlis (bobi)ning  
boshoq qismida parkentlik shoir  
Orif Farkatiy (arab alifbosida "P"  
harfi yo'qligi sababli Parkent "F"  
harfi bilan yozilgan) to'g'risida  
ma'lumot beriladi.

Orif Farkatiy TIB 18 asrning o'ta-  
larida Parkentda tug'ilgan. Yetuk  
yoshida ilm izlab Samarcandga  
emas, Xurosonga – Hirota borgan.  
Forsida ijod qilgan, g'azallaridan  
devon tafsif qilgan. (Devon  
tuzishda asosan muallif tomoni-

dan g'azallar qofiya yoki radiflari-  
ga ko'ra arab alifbosи tafsibida  
joylashtiriladi.) Ma'lumki, Sharqda  
devon tuzish shoirning mahorati,  
iste'dodining yetukligi belgisi hi-  
soblanadi.

Navoiy Orif Farkatiyini shaxsan  
tanigan. Hirot adabiy maktabining  
taniqli shoiri Faxriy Hiroti "Ravza  
ut-salotin" asarida Orif Farkatiy  
yozgan muammo (maxsus janr)  
larni sharhlagan.

Alisher Navoiy yozadi: "Orif  
Farkatiy – Samarcand navohini-  
ning Farkat degan mavzuidandur.  
Ko'p vaqt Xurosonda, Hirot tax-  
tida bo'lur erdi. Goh sabad o'qr  
erdi va goh lavandlik (yalqovlik)  
qilur erdi. Va iffon izhoriga ma'shuf  
(berilgan) erdi. Iroq (bu davrda  
Iroqda shoir olimga homiylik  
qilgan Oq qo'yunlilar – turk-o'g'uz  
qabilalari (turkmanlar) birlashmasi  
davlati hukmonlik qilgan) sari  
bordi va ahvoli ma'lum bo'Ima-  
dikim, ne bo'ldi. (Alisher Navoiy.  
"Mukammal asarlar to'plami", 20  
tomlik. "Majolis un – nafois". 13-  
ton. Toshkent, 1997, 151-bet)

(Davomi 3-sahifada) ►

4

## Viloyat bo'ylab



Bosh vazir o'rinosari Zulayho Mahkamova OHANGARON tumani tadbirkor ayollar bilan muloqot o'tkazdi. Shuningdek, mahallalarda bo'lib, oilalaroda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda «mahalla yettiligining mas'uliyatini oshirish, shu kabi huquqbazarliklar profilaktikasiga yangicha ish usulularini tatbiq qilish borasidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdi.



OHANGARON shahri Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish markazida ishsiz, ijtimoiy himoya muhtoj xotin-qizlar uchun mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Shu kuni sektor rahbarlari ishtirokida fuqarolar qabuli hamda oilaviy poliklinikada 30 dan ziyod ayollar uchun kengaytirilgan tibbiy ko'rik o'tkazildi.



QIBRAY tumani hokimi M. Rashidov «Sa-  
lar» hududidan o'tuvchi temir yo'l atrofida  
olib burayotgan obodonlashtirish ishlari  
ko'zdan kechirib, noqonunu qurilmalari  
bartaraf etish, bo'sh yer maydonlariga  
ko'chatlar ekish bo'yicha mas'ullarga topshiriq berdi. Jarayonda  
aholi bilan suhbatlashib, muammo va murojaatlarini o'rgandi.



BO'STONLIQ tumanida asalarichilikni rivojlantirisha  
bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilarga  
uy sharoitida asalari oиласини qanday parvarish qilish,  
zamonaviy veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazish,  
ozuqa bazasini yaratish atroficha tushuntirildi.



QQO'RG'ON tumanidagi 23-maktabda «Baxtli bo'lish o'z  
qo'imizda» mavzusida davra subhati tashkil etildi. Tuman IIIB,  
Milliy gvardiya bo'limi xodimlari hamda «Ma'rifat» targ'ibotchilar  
guruhi a'zolari ishtirok etgan tadbirda yig'ilganlarga yoshlar va  
xotin-qizlar o'ttasida jinoyatchiliking oldini olish, bo'sh vaqtini  
behuda sarflamay, o'qish va hunar o'rganish borasida tavsiyalar berildi.

«ИНФОЛУТТИБОЗЛАР»га  
ИШОНМАНГ



2

▼ "Haqiqat" choyxonasi



— Nima deyapti?  
— Endi bir oyga 669 ming so'm topgan odam kambag'al hisoblanmaydi, deyapti...

О, БУ НА  
ЁЛГОН БЎЛДИР!

Энг ачинарлиси, айрим  
ташкилотлар обунага йил  
бошида шартнома қилиб,  
пулини йил мобайнида  
тӯлаш учун кафолат хат-  
лари беришган бўлсада,  
лекин ҳанузгача таҳририят  
ҳисобига обуна пулларини  
үtkазиб беришмаган...

Жойлардаги айрим корхо-  
на ва ташкилот жамоалари  
турли фирмалар орқали газе-  
таларга ёзилишгану, амалда уларга  
газеталар етиб бормаган бўлса, демак бунга  
мана шу иккى ҳолатдан бири сабаб: ё амалда  
сохта ҳисобот учун квитанциялар ёзилган, ёки  
бу фирмалар обунанинг бир қисмини таҳри-  
риятдан яшириб келган...



2

## ▼ Ажаб саводлар

Донишмандлардан бири деббики: "Агар ҳали ҳам гина-кудуратни унутмаган бўлсангиз, демак кўнгил уйингизнинг гиштлари мустаҳкам эмас. Агар ҳали ҳам бирорларни айблаётган бўлсангиз, демак фикрингиз етарлича тиниклашмабди. Агар ҳали ҳам мусибатлардан ғамгин бўлсангиз, демак яшашнинг асл моҳиятини англаб етмабсиз.

# О, БУ НА ЁЛГОН БЎЛДИ?

Бу мулоҳазаларни узок давом эттириш мумкин. Масалан, агар ҳали ҳам "Тошкент ҳақиқати"га обуна бўлиб, уни олоплаётган бўлсангиз, демак сизнинг чуб туширишган...

"Кинир ишининг қийиги кирк йillardан кейин ҳам очилади". Ҳалқ орасидаги бу ибора бејизга айтилмаган. Бу ҳақда сал кейинро...

Иккى йillardик, вилоят журналистлар уюшмасининг беминнат кўмуги билан "Хуррият" ва "Тошкент ҳақиқати" газеталарига вилоятдаги матбуот фахрийлари белуп обуна қилиб келинади. Шу рўйхатда менинг ҳам қўшишган, барака то-писсин. Газета ҳафтада иккى марта почта орқали хонадонимизга келиб турди.

Аслида, бу Тошкент вилояти ҳокими Зойир Мирзаев бослаган эзгу ташаббуснинг бардавомлигидир. Бир гал матбуотчилар байрамидан вилоятимиз раҳбари билан киска мулокот қилиб, бу инсоннинг ижодга, маънавиятга, маърифат, адабиёт ва санъатга чикдиган уч-тўртта нашрга ҳомийлик хисобидан обуна қилиши ташкил этганини эшилтиб, койил-е, деворгандик!

Қолаверса, кўпигина ҳамасбларимиз, туман ва шахарлардаги газетчи дўстларимиз Зойир Мирзаевнинг босма нашрларни доимий қўллаб-куватлаб келалётганини кўп этироф этишиди. Узим ҳам бир тадбирда бу ишининг вилоятдаги 23 та маҳаллий ташриятиларга энг сўнги русумдаги компьютер жамламалари хадия кигланига шахсан гувох бўлганиман.

Шу дессанг, ўзим кўп йиллар ишлаб қадрдан даргоҳ – "Тошкент ҳақиқати" газетасига тез-тез бориб турман. Бугунги газетчилик, унор кўтаришларга тараётган мавзуларни таҳдидларда бориб турман. Бугунги газетчилик, унор кўтаришларга тараётган мавзуларни таҳдидларда бориб турман. Айрим ҳолларда айнан битта обуна квантаняси ҳам туман маълумотномасида, ҳам бошқармалар маълумотномасида акс

ёшларнинг интилишларидан завқ ва куч оламан.

Ташриятига сўнгти борганимда, қадрдан ҳамасблариминг айтишича, шунча эътибор ва хайрихохликларга қарамай, айрим субтисиз раҳбарлар ва обунадан пул қилишга "тўғма ихтисослашган" фирмачи таддиркорлар

этирилган экан, жабрини яна таҳририят тортиби!

– Обуна уюштирувчи масъулияти чекланган жамиятлар, аслида масъулиятсиз фирмаларнинг кирдикорлари ҳам кўпда, – дейди кўйилк ҳамасбимиз Тұхтамурод Ҳасанбоев. – Улар амалда йўқ обуна учун жойлардаги ташкилотларнинг илтимослалия биноан, гўёки "обуна бўлишган" деган мазмунда квантанялар ёзиб бераверишган. Айнан шундай қалблар ишлар билан бир эмас, бир нечта матбуот тарқатишига ихтисослашган "тадбиркор"лар шугуллашгани бизга маълум. Ҳозир уларнинг фаолиятини атрофияз ӯрганимиз, шу мавзуда бир фельетон ёзсанмиз, деб турибман. Бу "учар"лар ташкилотлардан обуна маблағларини қабул қилиб олгандан кейин ҳам ташриятига тўлиқ "заказ-наряд" беришмаган...

Т. Ҳасанбоев бунга мисол қилиб, Паркент туманинадаги "Янги матбуот тарқатувчи", Қиброй туманинадаги "Қиброй ПРЕСС" каби бир нечта масъулияти чекланган жамиятлар номини тилга олди. Ҳатто айрим ташкилотларнинг кўпиди ёлип кетганига неча йиллар бўлган "Матбуот тарқатувчи" деган соғбик идоранинг читталари ҳам боришида!

Бу гапларни эшишиб ёқа ушладим, маърифат, зиё тарқатиш ҳам кўлбла бизнесга айланни улгурнибди!

Ташриятига берилган маълумотларда жойлардаги айрим корхона ва ташкилот жамоалари мазкур фирмалар орқали газеталарга ёзишишган, амалда уларга газеталар етиб бормаган бўлса, демак бунга мана шу икки ҳолатдан бирি сабаб: ё амалда соҳта хисобот учун квантанялар ёзилган, ёки бу фирмалар обунанинг бир қисми ташриятидан касдан яшириб келган. Т.Ҳасанбоев ёзидиган фельетонидаги мана шу жиҳатни жиддий ӯрганини керак, дейман ташриятидан кайтаётисб...

Энг ачинарлиси, айрим ташкилотлар обунага йил бошида шартнома қилиб, пулни йил мобайнида тўлаш учун кафолат хатлари беришган бўлсада, лекин ҳанузгача ташрияти хисобига обуна пулларни ўтказиб беришмаган экан.

Мен бу гапга ишониб-ишонмай, бухгалтериядан атай суринтириб билдим. Масалан, ўтган йил хисобидан Юкори Чирчик тумани "EVERYDAY" МУЖ галла кластери 91 миллион сўм, вилоят Экология бошқармаси 18,5 миллион сўм, Тошкент давлат аграп университети 20 миллион сўм обуна маблағларини ҳанузгача тўлаш беришмаган. Ҳолбуки, уларга йил давомида шартномада кўрсатилган миқдорда газеталар бекаму кўст етказиб беришган экан.

Шу дароҳда ишлаганимдан бери биламан, ҳар йили ўнлаб талабалар амалиёт ўтшади, касб сир-асорларини ўрганишади. Айримла-ри шу ерда ишлаб, кун кўришади, илим олишиади. Газета-

нинг

ҳақини

еъни

менинг

худди

тала-банинг

ҳақини

еъни

ошибки

худди

тала-банинг

ҳақини

еъни

менинг

худди

тала-банинг

ҳақини

еъни

худди

тала-банинг

**Mavlono Qosim**, Alisher Navoiyning 1495-96-yillarda yozilgan "Nasoyim ul-muhabbat" ("Sevgi shabadalari") tazkirasi musulmon Sharqida xalq orasida obro' topgan va mashhu bo'lgan 770 shayx (ularning orasida 35 ta avlyio ayollar)ning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. Asarda, shu jumladan, Jomiy, Lutfiy, Ashraf Muflisiy, Shayx Sanon,

o'tadi. Mavlono Qosim XV asrning boshlarida Parkentda tug'ilgan. Samarqand madrasalarida o'qib, donishmandlik darajasiga yetgan. O'zining ilmiy salohiyati, shaxsiy fazilatlari bilan Samarcanda Hoja Ubaydulloh (Hoja Ahror)ning ulug' suhbathdoshi va dösti darajasiga erishgan, ellik yilga yaqin ul hazratning xizmatida bo'lgan.

yaxshi tanigan, uning suhbattaridan bahramd bo'lgan. Alisher Navoiy Mavlono Qosim tarihidav etib, yozadi:

"Mavlono Qosim (quddisa sirruhu – Alloh uning sirlarini muqaddas qilsin) Hazrat Hoja Ubaydulloh (Hoja Ahror) ning kibor (ulug') ashobidindur (suhbatdosh, do'staridandur). Anjumanda

va Mavlono Qosimni salotin xizmatig'a ba'zi arbobi va salotin istiqbol qilib, ta'zim bila o'turib, har ne alar ul Hazratdin risolar qisalar erdi, minnat tutub, hamul nav' e'zoz bila uzoturlar erdi va Mavlono ul nav' foni y maqbul kishi erukim, oni ko'rgon kishi girifor (maftun) bo'ur erdi...

Alarning yoshi yetmishdan o'tub erdi.



Nosir Hisrov, Nasimiyy va shular qatorini Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy kabi turk mashoyixlari faoliyati ham keng yoritigan.


Navoiy bu mashoyix, avlyio va anbiyolarning faqat so'fiyona qarashlari ningina qalamqa olmasdan, balki ularning adabiyot va jamiyatdagi orniga ham katta e'tibor bergan.

Asardagi shayxlar ro'yxatida 461-o'rinda Alisher Navoiy mavlono Qosimning hayoti va faoliyatiga ro'xtalib

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

"... Gohida sultonlarning huzuriga ba'zi ehtiyojlar uchun yuborar edilar. (Ya'n Hazrat Hoja Ubaydulloh Mavlono Qosim – tahririyat.) Sultonlar uni hurmat bilan qabul qilar va shu tarqa kuzatib qo'yardilar. Uni ko'rgan kishi sehranib qolar edi". "Ul jumladin, alarni ul Hazrat musulmonlar maslahati uchun Movarounnahrdan Xurosonga elchilik rasmi bilan yuborgan edilar va bu faqir (ya'n Navoiy – tahririyat.) ham ul kelgalarida ko'rub, alarning volini (muxlisi) bo'lub erdi".

Bu satrlardan ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiy ham Mavlono Qosimni



hamdam va xilvatda mahram. Asli Farhat navohisidindur. Ellik yilg'a yaqin ul Hazrat xizmatini andoq qildikim, hargiz alarning muborak xotiralariga andin g'ayri muhabbat va ittifot voqe bo'lmadi

Olamdin o'ganlari bu nav erdikim, Hazdin Rojaning azim za'flari (xastaligi) bor edi va so'l yonlarda bir sanchiq emishki, barcha attibo (tabiblar) va xalq hayotinidan tama' munaqqa' qilg'an ermishlar (barcha uning hayoti uzildi, tamom bo'ldi deb o'yildilar)...

Mavlono Qosim dog'i Hojaning boshiba evrilib, ul marazni (kasallikni) qabul qilib, og'riq yuki ostiga kirib, ul yukni ko'tarib, Hazrat Hoja hamul vaqtida sihat topib, Maylononing hamul so'l yong'a hamul sanchiq turub, bir hafta shu marazg'a (xastalikka) girifor bo'lub, jonlarini Hojalang'af' fid qildilar. (Alisher Navoiy. "Mukammal asarlar to'plami". 20 tomlik, 17-tom. "Nasoyim ul-muhabbat". Toshkent, 2001, 276-bet.)

XV asrda yashab o'tgan va Alisher Navoiyning nazari tushgan hamyurtlarimiz – mavlonolarning hayoti, ijodi, intilishlari zamondoshlarimiz uchun ham o'nak. Ko'ramizki, asrlar davomida Parkentda ilm-fan, madaniyatga intilish jo'shib kelgan.

Shunisi muhimki, bu an'ana avlodlar umrida davom etmoqda.

**Sulton XOLNAZAROV,**  
O'zbekiston Respublikasida  
xizmat ko'srtagan  
madaniyat xodimi

## Ehtirom

### Biz Hazratni topamiz...

Shoir Rustam Mirvohidning bir to'tligini o'qib turib xayolimda ancha-muncha narsalar aylandi. Qarang:

Duch kelgan domidan muttifi chiqmagay,  
Duch kelgan shoirdan Lutfiy chiqmagay.  
Har kimga juft topmak sunnatdir, amro  
Bir buyuklar borki... jufti chiqmagay.

Lutfiy nomi, ayniqsa, so'nggi satr menga hech ikkilishsiz Navoiy hazratlarini eslatib yubordi. Navoiy "Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lazha yosh..." nomli g'azalini yozganida, ushbu g'azaldagi joyiba, qol'langan san'atlar va ohang tarannumi ko'rgan Lutfiyek ulug' qalam sohibi: "Agar Alisherberk istasalar butun jiddimani mana shu g'azalga almashardim", deya lutf qilganliklari ishonchli manbalardan bizgacha yetib kelgan.

Haqiqatan ham, Alisher Navoiy nomi haligacha adabiyot fenomeni bo'lib kelayotgani, qisqa umri mobaynida yaratgagan kullyoti hali-hanuz qiziqib o'rganilayotgani bobomizing nafaqat iste'dodidan, balki ilohiy nazar sohibi bo'lgantigidan ham dalolatdir. Navoiyning adabiy olamdag'i o'midan shoh asarlar orqali xabardoniz, amro shaxsiyatini qanchalik bilamiz? Bir mamlakatning bosh vaziri – katta bir amoldori bo'la turib kibraga etak siltab, qalb so'figini saqlab qolish... osonmi?

Manbalarda yozishicha, Navoiy Hirotdagi qabristonlardan birining obozligi uchun o'z mehnati singishini xohlab, uni tozalash mas'uliyatini amir Xusnay Boyqarodan o'zi iittimos qilib olgani ham bobomiz insoniylig pog'onasining nechog'liq yuqori nuqtasida turishiga chiroqli dalidir. Ul zotning chin muhabbatga oshnoligi, e'tiqodga churur ehtiromi, qisqa qilib aytganda, Alloha muhabbat shaxsiyatida qilgan ishlariiga, ijodida esa yozgan asarlariga muhurlangan. Buni quyidagi mustazod orqali ham his qilishimiz mumkin.

Ey, husnungga zarroti jahon ichra tajallo,  
mazhar sangha ashyo,  
Sen lut bila kavnu makon ichida mavlo,  
olam sangha mavlo.

Har yon kezaram telba sifat toki yoshundung  
ko'zin par yanglig',  
Majundin o'zin toki nihon qilmadi Laylo,  
ul bo'lmedi shaydo.

Uryon badanim zaxmlari ichra emas qon,  
yuz pora ko'nguldur,

Bu ravzanalardin qiladur har biri, ya'n  
husnung'a tamosh.

Har yon nazarmi tushsha, sen ollinda turserun,  
ko'rmas vale ag'yor.

Ravshandur ushbusi, emas qobil a'mo  
nazzoray bayzo.

Ul nodiradinkim, laqabin hur demishlar,  
husnung erur ahsan.

Ul manzaradinkim, otidur jannati a'llo,  
ko'yung erur a'llo.

Zuhd ichida topmadi Navoiy chu maqome,  
emdi qilur ohang.

Kim bo'lg'ay ulu bodavu bir turfa mug'anni,  
mug'kulbasia ma've.

Har gavhari tufrog' uza bir qatra suv yanglig'  
tushgach adam ol'g'ay,

Gar qilmasa ishfog' etibon xusravi G'oziy.

nazming sori parvo.

Ana go'zallik, mana latofat. Mana abadiyatiga muhabbat. "Husning orzumandi bo'lib butun zarralar tajall (jilva) qiladi, borliqning go'zalligi Sening Go'zal fe'lingdandir va bu Borlingingga ashyo (dallidi), deb boshlanayapti mustazod.

O'z-o'zidan ma'lumki, ilohiy ishqqa yo'g'rilgan satrlar nag'makashligi va jilvabardorlikdan butkul xalos holda qog'ozga tushyapti. Sevgi isbotini tonyapti. Balki shuning uchun ham Navoiy hamon izzatadir, unisi O'ziga ayon.

Shu o'rinda yana bir achinarli holatni aytib o'tish o'rinni, Navoiyning tili hozir bizga "og'ir"lik qilyapti. U kishining yozganlarini tushunib, mag'zini chaqish faqat xos adabiyotshunoslarga qiladi.

Sabab nima? Sabab – o'qimay qo'yidik. Ha, turkiy so'z boyligimizni oshirmay qo'yidik. Qopag'on yillar kasrida talangan tilimiz bizni bobolaramizdan uzoqlashtirdi. Ammo endi iziga tushirsra bo'ladi-ku.

Harakatimiz hamon sustdek tuyulmoqda. Navoiy ijodini yoshlarga keng o'gartish, turkiy so'zlar lug'atlarini ommalashtirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratmaslik, har yili 9 fevral arafasida, uzog'i bir oy muddata ta'lim maskanlarida o'tkaziladigan turli ma'naviyat tadbirilariyu navoiyxoniklar bilan bobomiz sunxalarini hali-beri tushunolmaymiz.

Zeroki, Navoiyning ijodi faqatgina "Keimadi", "Qaro ko'zum", "Avvalgilarg'a o'xshamas", "Qoshi yosimini deyin" nomli g'azallardan iborat emas, tom-tom kitoblarda berkingan ma'naviy xazinadir u. Shuni biz o'zlashtirishimiz kerak. Yod bilishimiz va umrimiz davomida dasturlamai qilishimiz kerak. Zora shunda shaxsiyatimizda komilliqa yaqinlashish kuzatilsa...

Bolalami adabiyotdan uzoqlashtirish baxtli qilolmaymiz. Adabiyot esa Navoiysiz tasavvurga sig'maydi. Bundan bir necha oy avval bobomiz haqlarida fikr yurita turib, quyidagi bir to'tlikni ijod qilgan edim:

Navoiyini izlab emas, navo istab topdim uni,  
Dil dardidan kuyib, bir pas davo istab topdim uni.  
Diqqinafas siqilgan ko'ngilni shamollatay deya,  
Sokin so'z, muattar obi-havo istab topdim uni.

Ha azizlar, biz Navoiymi topamiz, faqat qayerdan va qanday izlashni bilsak bas.

**Mohirbek QO'CHQOROV,**  
jurnalist

## Yuzni gullardan bezabmu bizni qurbon aylading...

Alisher Navoiy  
g'azallaridagi ishqiy  
kechinmalarning  
yoki falsafiy-badiiy  
umumlashmalarning  
g'oyaviy negizi har  
qanday davr kitob-  
xonini beixtiyor  
hayrat dunyo-  
siga yetaklaydi.

Navyo ijdoda, xususan, yigitlik va o'tta yoshlik lirikasida shunday g'azallar turkumi mavjudki, go'yo shoir uarda ma'shuqa tashqi chiroyni: qosh-ko'zini, nozishvasini, sarvdek qomatini madhi etish vositasida asilda uning ichki dunyosidan: jafojligidan, firoq si-tamkashligidan, jabr-zulmiyu shafqatsizligidan keskin shikoyat qilayotgan bo'ladi. Ana shunday keskin norozlik motivi, mahoratni qarang, shoir tomonidan chunonam yoqimli sado, xush ohang, xalqilch rul pardasida kitobxonga yetkaziladi. O'zgacha aytganda, manzurning kishi qalbida nafrat uyg'otuvchi barcha illatlari: kibri, jaftosi, jabru sitami, beshfqatligi – barchasi beqiyos husn-jamoli oldida bir zumda yo'qqa chiqadi ga kuchli nafrat ulug' shoir qalamida asta-sekin g'ayritabiyo yosinda o'tli muhabbatga do'na boshlaydi. Ya'n, ma'shuqa qancha sitamkash va jafoj' bo'lmasin, baribir u shoirning beg'ubor nighohida mehrga, e'zozga loyiq bo'lib boraverada. Mana shu g'ayritabiylig o'ziga xos tantanavor ruhi, shirador uslubi, misiqiy jilosi, mazmuniy tarovati bilan o'qvuchi, ijrochi yoxud tinglovchi e'tiborini jaib etib, onga shu shoirda o'zgacha zavq, hayajon va fuskunkor hosil qiladi.

Quyida shoir qalamiga mansub ma'lum va mashhur "Aylagach" radifli g'azalni tahlil qilishga urinamiz.

Ushbu g'azal shoir ijodiy takmilining uchinchil davri mahsuli bo'lgan "G'aroyibu-s-sig'ar" devoni tarkibidan o'rinni o'lgan. Undagi lirk kechinmaning yetakchi qahramoni – ma'shuqa. Shoirning o'zga g'azallarida bo'lgani kabi bu o'rinda ham ma'shuqa bir nighohida lishni hushyor tortishga, bemisli husn va lotalot qida o'zingizni yo'qotib qo'ymaslikka da'vat etadi. Zero bu jon o'tovchi sohibjamol ulug' shoirning nurli qalamgi orgali so'z san'ati dunyosida o'ziga, o'zligiga erishgan va so'z san'ati dunyosida o'ziga, o'zligiga erishgan va faoliyatiga bag'ishlangan. Ma'shuqa mazkur o'rinda ham chiroya tengsiz, ham aqida qiyosi topildigan sanam. Ammo vafoda-chi!

Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,  
Sham' ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.

Husni ortar. Qachon? Yuzda zulfin anbarafshon aylagach. Zulf – ma'shuqa chiroyni bezagi. Goho shu chiroyni turli ko'zlardan himoya qiluvchi to'siq – parada vazifasini o'tash bilan birga ko'proq oshiq dimog'iga uchilagan xushbo' yifor manbai ham hisoblanadi. Uning mumtoz adabiyotimizdag'i ma'rolar silsilasini sharhlasning o'zi alohida bir daftari bo'sla, ajab emas. Zulfin sochdan farqlash lozim. Badiiy ijodda, xususan, she'riyatda ularning biri boshqasi o'nida qo'llanganollar juba ko'p kuzatiladi. Bu hol vazn yoxud qofiyta talabi bilan ro'y ber gani uchun nuqson sanalmaydi. Zulf ustiga so'z san'atida qism o'miga butun yo shuning aksini ifodalash o'ziga xos tasvir usuli hisoblanadi. Soch ma'shuqaning butun jismini yashirishi, yopishi mumkin. Zulfa bunday imkoniyat yo'q. U chehraning ikki chekkasini salgina bekitsihi mumkin, xolos. Zulf qulqo oldida bir qiyish qiziq shakliga ega. Mumtoz shoirlarimiz uni arab yozuvigidi "dol"ga mengzaydilar. U visol umidigidi oshiq uchun "dor" vazifasini o'tashi ham mumkin. Bunda albatba mubolag'aga yo'l qo'yilgan bo'ladi. Tasavvufda zulf manzurning beqarorligiga, ba'zan esa barqarorigiga shora qiladi.

Modomiki, yor oshiqqa visol lazzatini va'da qilmas ekan, unda oshiq'ini shu zulf bilan "osib, jondan judo" qilgani ma'ql. Chinakam oshiq uchun bu ayni kutilgan qismat. Shuningdek, zulfning ma'shuqa tomonidan lab yoxud tish orasiga olinishi yaxshilik alomati emas. G'azal matla'sida zulf hush chiroyning ortishiga sababchi unsur, shu bilan birga mushki anbar taratuvchi yoqimli ashyo sifatida tilga olingan. Sham nuri qanchalik tor, ingichka bo'sla, uning yog'dusi shunchalik nurafshon bo'lishi hayoty mantiq. Xuddi shu mantiq zulfning hush chiroyning borgari sari ortishini ta'minlash xususiyatini poetik jihatdan dalillay oladi.

Yuzni gullardan bezabmu bizni qurbon aylading,  
Yo yuzunga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?



## Hayrat

Qon emaskim, yopti gulgun hulla jannat xozini,  
Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.

Oshkor aylab yuzin, ko'zumni hayron ayladi,  
Yoshurin oldi ko'ngul, ko'zumni hayron aylagach.

Jong'a qo'yg'ach naqqi ishqning qildi ko'nglumi halok,  
O'titur mahramni sulton ganji pinhon aylagach.

G'azalning umroboqiy shuhratini ta'minlagan fazilardan bire uning xalqchilligidi. Shu bois ham bu g'azal yaratilganidan beri mumtoz navo og'ushida xalqimizning yetuk xonanda va hofizlari tomonidan ijro etilib kelinoqda.

**Abdurahmon PIRIMQULOV,**  
Islam Karimov nomidagi TDTU  
Olimali filiali kengash kotibi,  
filologiya fanlari doktori



## ▼ Кўнгил шеваси

## Ватан улдир – дилилдаш хуш оятим...

Дунё

Бу дунёга дил берма, дил,  
Дунё ғаминг емайди.  
Сен дунёни деган билан  
Дунё сени демайди.  
Учб юрган күшдири тақдир,  
Кўвма, ҳарзиг тутиб бўлмас.  
Тирикликнинг оши таҳир,  
На ташларда, на ютиб бўлмас.  
Ўз йўлида оқар дарё,  
Ўз тоқида сұнар жоудуз.  
Одамзод жуфт яшар, аммо  
Рух танҳо-ю, ишқидир ёғлиз.  
Дилда ёрнинг озори чўй,  
Чўйни узб отолмассан.  
Хақдан ўзга вафдор йўк,  
Минг йил яша, тополмассан!  
Бу дунёга дил берма, дил...

Чирор

Биламан...  
Багрим бут – ёнимда дўст-қадрдоним,  
Борим баҳам кўрар, йўғин тўлдири.  
Ўв-в, ногоҳ қуллукни унугтан оним  
Миннатлар бўғзимдан бўғиб ўлдири.  
Йил этган чироқка бўлдим парвона,  
Сендеқ жон фидони топмадим, она!  
Юрт кесас иззатим беш кунми-ўн кун,  
Сўнг тугар илтифот, эхтиром, хузур.  
Сигмасас сигиниб бормогим нечун,  
Кайтаман... киприда бир томчи узр....  
Кўрдим, эртақлари чин эмас, рўё,  
Отамнинг уйича кенг эмас дунё!  
Қалбим эшикларин очдим – кирдилар,  
Минг алқаб мехримин ичдилар кониб.  
Қай кун илҳак бўлдим – юзин бурдилар,  
Тугашим кутдилар ўртаниб, ёниб....  
Ўзимни сабрнинг қаърига отдим,  
Бандадан топласам. Раббимдан топдим!  
Тонгда тўлғоқ тутган гунча гирдида  
Булбул чарх уради нолаваш, гирён.  
Яшаганим ростми, элнинг дардиди –  
Ўзимдан ортдими ишк, оташ, түғён!?  
Ибратид гўзалик қосида сархуш –  
Кўксини тиконга ураётган куш!  
Оҳ, десам жилмайди дошишманд очун,  
Хикмат китобини очди бирма-бир:  
Шу азиз тупроқни коришмоқ учун  
Кўқдан тушиб келар ҳаттоқи ёмғир...  
Мадҳингга аризими шу фамгин баёт,

Сизни соғиндим...

Бугун ногоҳ чўккан тоғдайман,  
На беморман ва на соғдайман.  
Хувилаган кузги боғдайман,  
Сизни жуда соғиндим, она!

Оташларда ёндим, ўртандим,  
Озорларга кўндим, ўртандим,  
Айтинг, сўнг бор қачон кўргандим,  
Сизни жуда соғиндим, она!

Сиз бир ёнсиз, дунёлар бир ён,  
Ваҳ, дунёга дил бердим қачон?  
Кипригимда бир томчи армон,  
Сизни жуда соғиндим, она!

Ишқа умрим бердим – бор бўлдим,  
Ўтинг, ўйинчларга ёр бўлдим,  
Охир факат Сизга зор бўлдим,  
Сизни жуда соғиндим, она!

Менга Сиздек кўйган борми ҳеч,  
Ё миннатсиз сўйган борми ҳеч,  
Жонимни бахш этсан, энди кеч...  
Сизни жуда соғиндим, она...

## Почжент вилояти

(фаҳрия)

Ватан недир? У кўз очиб кўрган оним,  
Улуғлар бош кўйиган замин – хур маконим,  
Уч кун олис кетсан соғинч қўйнан жоним,  
Ватан улдир – дилимдаги хуш оятим!

Хожа Ахрор Валий севган тупроқдир у,  
Восифийнинг дил ганжида бир оҳдир у,  
Хондайликий назми аро бир моҳдир у,  
Ватан улдир – алломалар очган эшик,  
Багрида баҳт балқиб ётган тилло бешик!

Элбек десам, осмон ногоҳ ёришмасми,  
Маърифатнинг нури дилга қоришимасми,  
Илм олмок чиндан ҳам энг зўр ишмасми,  
Ватан улдир – булбул сайраб турган бўстон-  
Музайяна жамлаб кетган ўлан, достон!

Эл унумтас Ҳамроқулдек ўғлонларин,  
Ризаматлар – машхур уста бобонларин,  
Оқилхон-у. Маҳмуд Карим шаҳд-шонларин,  
Ватан улдир – боболардан колган излар —  
Кўлларида китоб тутган ўғил-қизлар!

Зарифа ЭРАЛИЕВА,  
Ўзбекистон Ёзувчилар  
уюшмаси аъзоси,  
шоира

Дж, мен...

Ҳажр – сиртмоқ, дедим, бошинг тутдинг-а,  
Жабр – оғу, дедим, бол деб ўтдинг-а,  
Сабр – килинчи дами, оҳ, тик ўтдинг-а,  
Айт, кимга ишондинг жонининг бутикул,  
Титраб турган япроқ, кулиб турган гул –  
Кўнгур!...



Ҳаёт  
фалсафаси

Бандасан, бандага дилинг не тилар,  
Бил, олам абадий хона бўлмайди.  
Отанг кетса – ҳаёт оталик қиласар,  
Онанг кетса... ҳеч ким она бўлмайди!..

Зулфияжон, йўлга қараб толган момо,  
Беш боласи урушларда қолган момо,  
Беш келинни қандай йўлга соглан момо?  
Ватан улдир – киприкларда қотган жола —  
Фарҳиддиннинг торидаги ўтли нола...

Осимон олис эмас – метин нарвони бор,  
Келажакка нур элпугувчи карвони бор,  
Адолатни тумор қилган сарбони бор,  
Ватан улдир – минг синовдан ўтган элим,  
Хумо қушга кафтида дон тутган элим!

## ▼ Беш ташаббус олимпиадаси



## 1 МИЛЛИОН ЁШ ҚАМРАБ ОЛИНАДИ

Виляятдаги барча маҳаллаларга спорт жиҳозлари тарқатилди. "Нурафшон аренаси" ўйнгоҳида мазкур соғваларни топшириш маросими бўлиб ўтди.

Унда ёшлар ишлари агентлаги Тошкент виляяти бошқармаси масъуллари, виляят спорт бошқармаси валиллари, барча туман-шахарлардан кепган ходимлар катнашди. Жараёнда худуддаги 1 минг 25 та маҳаллага жами 7 минг дондан ортиқ футбол, вoleybol, баскетбол, гандбол тўплари ҳамда бошқа спорт жиҳозлари берилди.

Яқинда Бўстонлик туманидаги "Ёшлар оромоҳи"да "Беш ташаббус олимпиадаси" доирасида маҳаллалардаги ёшлар ўртасида 2025 йилги мавсумда ўқазиладиган оммавий спорт мусобакаларига тайёргарлик кўриш бўйича иккинчи давра ўқув-семинари ўтказилган эди. Унда мамла-

катимизнинг барча худудлардаги 9 минг 542 та маҳалла ёшларини онлайн платформага киритиш ва спорт мусобакаларига жалб килиш борасида мутахассисларга тушуниришлар берилди. Эндиликда жойларда ишлар шу асосда ташкил этилади.

Маълумот учун, "Беш ташаббус олимпиадаси"нинг 2024 йилги мавсуми дираисада ўқазиладиган лойиҳаларда иштироқ этиш учун 574 минг 689 нафар йигит-қиз рўйхатдан ўтган бўлиб, бу виляятдаги ёшларнинг 67 филиални ташкил этауди. Жорий йилда мазкур спорт мусобакаларига 1 миллионга яқин ўғил-қизларни қамраб олиши белгиланган.

Ўз мухбириз



Muassis:

**TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI**



"Toshkent haqiqati" va  
"Tashkentskaya pravda"  
газеталари таҳрир ҳати:

Zoyir MIRZAYEV  
(taҳriр ҳати raisi)

Abdusamad NOSIROV

Ummat MIRZAULOV

Hotamjon SAYDAHMEDOV

G'afurjon MUHAMEDOV

Sayyora FAYZIYEVA

Tohir ARIPOV

Mahmud TOIR

Uskenboy ATEMOV

Abdulla XURSANOV

Kumush EGAMBERDIYEVA

Behzod QOBULOV

Olimjon BEGALIYEV

Zarifa ERALİYEV

Sergey MUTIN

Bosh muharrir:

G'ayrat SHERALIYEV

Qabulxona:

(55) 520-64-95

Bosh muharrir o'rinosari:

(55) 520-04-10

Mas'ul kotib:

(55) 520-05-10

Bo'lim muharrirlari:

(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

E'lонлар ва hisob-kitob bo'limi:

(55) 520-21-20

e-mail: toshkenthaqiqati@mail.uz

Mas'ul kotib:

Alloma AZIZOVA

Navbatchi:

Nozima RASULOVA

Bosishga topshirish vaqtı – 21:00.

Bosishga topshirildi – 19:30.

Nashr ko'satsatichi – 205.

Buyurtma G-235.

3 931 nusxada chop etildi.

Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosildi. Qog'oz bichimi A-2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va omavviy kommunikatsiyalar boshqarmasida

2011-yil 12-yanvarda

03-001 raqamli bilan

ro'yhatga olingan.

Manzil:

111500, Nurafshon shahri,

Toshkent yo'li ko'chasi, 90.

Toshkent shahridagi ofisizim: Bektemir tumani,

Ittifoq ko'chasi, 2.

ISSN 2010-9318.

Gazeta "Toshkent haqiqati" таҳрири kompyuter markazida

terildi va Tohir Mahmudxo'jayev tomonidan sahifalandi.

Faftaning

chorshanba va shanba

kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida bosildi.

Korxonha manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6



Bugun zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Bu, albatta, kiyinish uslubimizga ham ta'sir qilmoqda. Zamoniaviy kiyimlarda milliy an'analar bilan birga Yevropa va G'arb uslublari uyg'unlashib ketgan. Ammo so'ngi yillarda yana milliy matolarni turli bichimlarda tikelash bilan qaytarishlar, asosan, XX asr boshlarida sezilarli ravishda namoyon bol'aldi va undagi transformatsiya, ayniqsa, shaharlarda yaqollar ko'zga tashlanadi. XIX asrning birinchini yarmida O'ta Osiyoga Rossiyadan ip gazlama va boshqa matolarning keltirilishi sababli XIX asr oxiri va XX asr boshida mahalliy aholi orasida fabrikada tayyorlangan ip gazlamlar: chit, bo'z, xom surdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo'lgan. Badavlat kishilar esa kimxob, ipak, atlas, duxoba, rang-barang movutlarni sotib olib boshlaganlar. Shunga qarama (Davomi: Boshlan